



SUG'URTA SOHASINING KELAJAGI MALAKALI KADRLAR QO'LIDA

Talipov Kamoliddin Faxrutdinovich

O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish Agentligi direktori

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Received: xxxx	XXXX
Accepted: xxxx	
Issue: 1	
DOI: xxxx	
KEYWORDS	
xxxx	

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha yo'nalishlari kabi sug'urta sohasi ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish hajmi ham sezilarli darajada oshmoqda. Mazkur sohani rivojlantirish hamda sug'urta xizmatlari iste'molchilarining moliyaviy himoyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishda bilimli va malakali kadrlar muhim o'rin tutadi.

Tahil va natijalar. Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida 41 ta sug'urta tashkiloti aholi va tadbirkorlik subyektlariga 150 turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Sohada mehnat faoliyatini yuritayotgan bilimli va malakali mutaxassislar mehnati mahsuli o'laroq, so'nggi yillarda sug'urta bozorining iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori sur'atlarda oshib bormoqda. Misol uchun, 2022-yil 11 oylik yakunlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi - 5,5 trln so'mga (o'sish 170 foiz) teng bo'lgan bo'lsa, sug'urta qildiruvchilarga (ya'ni mijozlarga) to'lab berilgan sug'urta tovonlari miqdori - 2,2 trln so'mni (o'sish 218 foiz) tashkil etdi.

Mazkur yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 4,4 trln so'mga (o'sish 121 foiz) yetgan. Investitsiyalar tarkibida 57,7 foiz (yoki 2,5 trln so'm) ulush bilan "bank depozitlari" yetakchilik qilmoqda.

Shuningdek, 2022-yilning o'tgan 11 oyi davomida sug'urtalovchilar tomonidan chiquvchi qayta sug'urta uchun xorijiy sug'urta kompaniyalariga to'langan sug'urta mukofotlari hajmi 387,3 mlrd so'mga (yoki \$ 34,3 mln. AQSH doll.) yetgan bo'lsa, chet el sug'urta kompaniyalaridan kiruvchi qayta sug'urta bo'yicha qabul qilingan sug'urta mukofotlari hajmi 531,7 mlrd so'mga (yoki \$ 47,1 mln. AQSH doll.) teng bo'ldi.

Sug'urta tashkilotlarida malakali kadrlarga talab yuqorilgicha qolmoqda.

Ayni paytda O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarida 6 mingdan ziyod xodimlar mehnat qilib kelmoqdalar. Shundan, oliy ma'lumotli xodimlar ulushi 70 foizni tashkil etadi.

Sug'urta faoliyati yuksak darajadagi iqtisodiy bilim hamda murakkab (aktuar) hisob-kitoblar asosida tashkil etilishi mijozlarga moliyaviy himoya o'z vaqtida hamda to'liq hajmda ko'rsatilishini ta'minlaydi. Shu sababli, sug'urta qonunchiligida sug'urtalovchi rahbari

hamda uning bosh buxgalteri lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar uchun malaka talablari belgilangan.

Xususan, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 36-moddasiga muvofiq sug'urtalovchining va sug'urta brokerining rahbari quyidagi malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak:

- oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- iqtisodiy, moliyaviy, yuridik ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislar uchun sug'urta sohasida kamida 3 yillik, boshqa ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislar uchun sug'urta sohasida kamida 7 yillik (texnik xodim lavozimini hisobga olmagan holda) ish stajining mavjud bo'lishi lozim. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) va sug'urta brokerining bosh buxgalteri esa "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Sug'urta faoliyati subyektlari sonini oshirish lozim.

Sug'urta tashkilotlari, sug'urta vositachilari (sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti), adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari hamda assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilari bo'lib, ular sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotini tashkil etishda minimal ustav kapitalini shakllantirish hamda sug'urta faoliyati bo'yicha litsenziya olish talabi mavjudligi sababli tadbirkorlik subyektlarining mazkur yo'nalishda faoliyat boshlashlari uchun puxta tayyorganlik ko'rish talab etiladi.

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etish faoliyati sug'urta brokerlari tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur faoliyat turi ham tegishli litsenziyaga ega bo'lishni talab etadi. Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida tegishli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi 7 ta sug'urta brokeri mavjud.

Sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etish faoliyatini ko'rsatuvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi hamda mazkur yo'nalish bo'yicha litsenziya olish talab etilmaydi.

Mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlab, sug'urta xizmatlarini targ'ib etishda sug'urta agentlari muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida 9 453 ta sug'urta agenti (shu jumladan 2 734 ta yuridik shaxslar) faoliyat yuritmoqda.

Sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta

obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish hamda sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxs yoki o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs adjaster hisoblanadi.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug'urta bozorida muhim ahamiyatga ega bo'lgan subyektlardan biri - aktuariy hisoblanadi hamda ular faoliyat yuritishi uchun aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lish talab etiladi. Hozirgi paytda mahalliy sug'urta bozorida atigi 5 ta malaka sertifikatiga ega bo'lgan aktuariy mavjud bo'lib, 40 dan ziyod sug'urta tashkilotlariga aktuar xizmatlarni ko'rsatishda ishtirok etishmoqda.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida "Aktuar va moliyaviy matematika" yo'nalishi bo'yicha magistrlik darajasini olgan bitiruvchilarni aktuariy sifatida faoliyat boshlashlari uchun keng imkoniyat mavjud. Hozirda aktuariy malaka sertifikatini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda berish yo'lga qo'yilgan.

Sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish hamda tekshirilayotgan sug'urta obyekt bo'yicha xulosa tuzish xizmatlari syurveyerlar tomonidan ko'rsatiladi. Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi yoki sug'urta qildiruvchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Bundan tashqari sug'urta tashkilotlari tomonidan mijozlarga sug'urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashda assistanslar muhim o'rin tutadi. Assistans sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi hamda ularga moliyaviy ko'mak beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan sug'urta bozorining professional ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning sonini oshirish, mazkur yo'nalishda malakali kadrlash tayyorlashga bugungi kunda ehtiyoj yuqori, sababi aholimizning turmush darajasi yaxshilanib, daromadlari oshgan sari o'zlarining hayotini, mulkini moliyaviy jihatdan himoyalash ya'ni sug'urtalashga bo'lgan e'tibori yil sayin oshib bormoqda.

Sug'urta sohasiga kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.

Sug'urta sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti hamda Bank-moliya akademiyasi tayyorlab beradi. Mazkur Oliy ta'lim muassalari bitiruvchilari sug'urta faoliyati mutaxassisligi bo'yicha bakalavr va magistr darajalari beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 02-avgustdagi PQ-4412-sonli qarori bilan 2020/2021 o'quv yilidan boshlab sug'urta bozorining professional ishtirokchilari xodimlarini (o'rta yoki o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan) sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining "Sug'urta ishi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha sirtqi va kechki bo'limlarga test sinovlari o'tkazilmasdan, belgilangan qabul kvotalaridan tashqari pulli-kontrakt asosida qabul qilish tartibi joriy etilgan.

Mazkur imtiyoz asosida bugungi kunda sohaga ixtisoslashgan Oliy ta'lim muassalarida 200 ga yaqin O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari xodimlari bakalavr darajasini olish uchun o'qishmoqda. Joriy 2022/2023 o'quv yilida ham Agentlik tomonidan mazkur imtiyoz asosida oliy ma'lumotli bo'lish istagini bildirgan sug'urta tashkilotlarining 60 nafar xodimi ro'yxati shakllantirilib, suhbatda ishtirok etishlari uchun sohaga ixtisoslashgan Oliy ta'lim muassalariga taqdim etildi.

Shuningdek, sug'urta xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirishda xalqaro tajribadan keng foydalanish maqsadida Yaponiyaning FALIA tashkiloti (The Foundation For The Advancement Of Life & Insurance Around The World) bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, hozirda sug'urta tashkilotlari uchun hayotni sug'urta qilish sohasi bo'yicha onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. 2022-yilning noyabr oyida Tokio shahrida sug'urta tashkilotlari rahbarlari (Top managers) uchun tashkil etilgan konferensiyada O'zbekiston sug'urta bozoridan 10 nafardan ortiq vakillar ishtirok etishib, o'z malakalarini oshirib qaytishdi.

Bundan tashqari, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida sohaga bilimli kadrlarni tayyorlashni qo'llab-quvvatlash maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan ilmiy-amaliy laboratoriyalar, sug'urta markazlari tashkil etilgan. Mazkur laboratoriya va markazlarda sohaga qiziqqan talaba-yoshlar sug'urta sohasi bo'yicha oliy ta'lim muassalarida olgan nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashlari mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish doimo e'tibor markazimizda bo'ladi.

Har sohada kuzatilayotgan rivojlanish, ko'plab jarayonlarning raqamlashuvi sug'urta sohasi mutaxassislarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishni taqozo etadi.

Shu sababli, soha mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha sug'urta tashkilotlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qo'shimcha ravishda O'zbekiston sug'urta bozori professional uyushmasi hamda O'zbekiston Aktuariylari Jamiyatida o'quv kurslari, seminar va konferensiyalar tashkil etish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Aktuariy malaka sertifikatini olish uchun nomzodlarni imtihonlarga tayyorlash bo'yicha kurslarini yo'lga qo'yish;
- Buyuk Britaniyaning Chartered Insurance Institute (CII) oliygohi bilan qayta sug'urta yo'nalishi bo'yicha sug'urta tashkilotlari xodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- O'zbekiston sug'urta bozori professional uyushmasida vositachilik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha sug'urta agentlari uchun o'quv kurslari yo'lga qo'yish;
- Sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatiga mas'ul bo'lgan xodimlari uchun xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

O'z navbatida, sug'urta sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yangi 2023 - "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da ham yuqori sur'atlar bilan davom ettiriladi.